



SOCIAL-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF PROTECTION FROM DESTRUCTIVE INFLUENCES IN WORKING WITH STUDENTS AND YOUTH

Jokhongir Kayumov
Independent Researcher
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: students and youth, destructive influences, socially dangerous actions, crime prevention, socio-philosophical analysis, ideological insensitivity, legal consciousness, spiritual education, civil society, public policy.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: This article analyzes the destructive influences encountered in working with students and young people, the level of social danger, and the socio-philosophical aspects of protection from destructive influences. It describes state policy regarding youth in the Republic of Uzbekistan, legal and regulatory acts on crime prevention, the system of spiritual and educational work, and public cooperation. The experience of foreign countries is also examined, and the most effective mechanisms aimed at preventing socially dangerous actions among students and young people are analyzed. The article substantiates that the development of a legal culture, social responsibility, and ideological immunity among young people is an important factor in the development of a rule-of-law state and civil society.

TALABA-YOSHLAR BILAN ISHLASHDA DESTRUKTIV TA'SIRLARDAN HIMOYALASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI

Joxongir Kayumov
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: talaba-yoshlar, destruktiv ta'sirlar, ijtimoiy xavfli harakatlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, mafkuraviy immunitet, huquqiy

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yoshlar bilan ishlash jarayonida uchrayotgan destruktiv ta'sirlar, ijtimoiy xavflilik darajasi hamda destruktiv ta'sirlardan himoyalashning

ong, ma'naviy tarbiya, fuqarolik jamiyati, davlat siyosati.

ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi va jamoatchilikning hamkorligi tavsiflanadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi o'rganiladi va eng samarali jihatlarini talaba-yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning huquqiy madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati va tanqidiy fikrlash va barqaror qadriyatlar tizimi shakllantirish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ОТ ДЕСТРУКТИВНОГО ВЛИЯНИЯ В РАБОТЕ СО СТУДЕНТАМИ И МОЛОДЕЖЬЮ

Джоксонгир Каюмов

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: студенты и молодежь, деструктивные влияния, социально опасные действия, предотвращение правонарушений, социально-философский анализ, идеологическая невосприимчивость, правовое сознание, духовное воспитание, гражданское общество, государственная политика.

Аннотация: В статье анализируются деструктивные влияния, встречающиеся в процессе работы со студентами и молодежью, уровень социальной опасности и социально-философские аспекты защиты от деструктивных влияний. Описываются государственная политика в отношении молодежи в Республике Узбекистан, нормативно-правовые акты по предотвращению правонарушений, система духовно-воспитательной работы и общественное сотрудничество. Также изучается опыт зарубежных стран и анализируются наиболее эффективные механизмы, направленные на предотвращение социально опасных действий среди студентов и молодежи. В статье обосновывается, что формирование правовой культуры, социальной ответственности и идеологической невосприимчивости молодежи является

Kirish. Bugungi kunda talaba-yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olish ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. zo'ravonlikni oqlovchi ekstremistik narrativlar, huquqbuzarlik, zo'ravonlik, giyohvandlik hamda internet orqali amalga oshirilayotgan destruktiv ta'sirlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois talaba-yoshlarni bunday tahdidlardan himoyalash masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat bilan uzviy bog'liqdir. Falsafiy nuqtayi nazardan, destruktiv ta'sirlar shaxs ongida qadriyatlar inqirozi, ijtimoiy begonlashuv va ma'naviy bo'shliqning kuchayishi natijasida vujudga keladi.

Mamlakatimizda talaba-yoshlar tarbiyasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilishi yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhimligini yaqqol namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ma'naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarori[1] hamda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[1] qabul qilinishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ta'sirchanligini oshirish, yoshlar ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirish va ijtimoiy xavfli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatlar talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, radikalizm, zo'ravonlik va giyohvandlik kabi salbiy holatlarning oldini olishda muhim huquqiy va ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida yoshlar tarbiyasi, milliy ma'naviyat va ma'naviy barkamollik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus" doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport, madaniyat, san'at va kitobxonlikka jalb etish orqali ularni ijtimoiy xavfli muhitdan asrashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [3].

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tizimli islohotlarning asosiy maqsadi yurt osoyishtaligini ta'minlash va inson huquqlarini har qanday ko'rinishdagi g'ayriqonuniy

harakatlardan asrash hisoblanadi. Bu boradagi ishlarning ijobiy samaralariga xalqimiz ham, xalqaro jamiyat ham guvoh bo'lmoqda. Lekin shu bilan birga hozirgi shiddatli va tahlikali zamonda ijtimoiy xavfli harakatlarning yangi ko'rinishlari, ularni sodir etishning turli-tuman yo'llarini ortib borishi jamiyat va davlat oldida yechimi zarur bo'lgan muammolarni yuzaga keltiradi. Bu borada O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev lavozimga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida shunday degan: "Biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o'zgarishlar sodir bo'layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi" [4].

Shunday ekan, davlatimiz va jamiyatimizda talaba-yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishda barcha kuchlarni birlashtirish, shu sohada qonunchilikni takomillashtirish zaruratidir.

"Inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil "Taraqqiyot strategiyasi"ning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, unda barcha e'tibor yoshlar huquqlari, ularning ma'naviy va ijtimoiy rivojiga qaratilgan. Yangi tahriridagi O'zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlari, erkinliklari va jamiyatdagi xavfsizlikni ta'minlashni kafolatlaydi hamda bu sohada qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Konstitutsiyada inson manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan va talaba-yoshlar huquqlari ham davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega.

Bu borada 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun ham muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [5]. Qonunda profilaktika chora-tadbirlarining maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari, profilaktika turlari hamda bu sohada faoliyat yuritadigan davlat organlari va ularning vakolatlari aniq belgilab berilgan. Ushbu qonun yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarni oldini olishda tizimli va huquqiy asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Qonunning 2-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasida xalqaro huquq normalari ustunligi e'tirof etilgani O'zbekistonning umumbashariy qadriyatlarga sodiqligini ko'rsatadi. Hozirgi davrda yuzaga kelayotgan ijtimoiy xavfli holatlar va yangi turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda, eng avvalo, buyuk tariximiz va ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish zarur. Shu bilan bir qatorda, xalqaro huquqning ilg'or tajribasidan unumli foydalangan holda, yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishda samarali ta'sir ko'rsatadigan milliy qonunchilikni rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi.

Jamiyat va har bir fuqaro huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi aholi ongida “profilaktika – har bir shaxs, uning oilasi va yaqinlarini, jamiyatdagi har bir shaxs manfaatini himoya qiladi” degan qoidani shakllantirishi lozim. Profilaktika faqat huquqbuzarliklarning oldini olish emas, balki insonlarni xavfli harakatlardan saqlovchi samarali omil hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda aholi o‘rtasida targ‘ibot va tushuntirish ishlarini tizimli olib borish tabiiy ehtiyojdir. Xususan, milliy va azaliy qadriyatlarga putur yetkazadigan, yoshlar ongida zo‘ravonlik, ma‘naviy buzuvchilik va salbiy odatlarni targ‘ib qilayotgan axborotlarga murosasizlik jamiyat tomonidan namoyon etilishi kerak.

Qonunchilikni takomillashtirishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikni oldini olish Kongressi hujjatlari va tavsiyalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir [6]. Shu bilan birga, ulug‘ ajdodlar merosini o‘rganish va jadidchilik harakatlari tajribasidan samarali foydalanish ham muhimdir.

Jamiyatda o‘zaro birdamlik muhiti shakllansa, yoshlar ongida qonuniylik, ijtimoiy adolat va inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiluvchi madaniy-tarbiyaviy qadriyatlar haqida to‘liq tasavvur shakllantirish mumkin. Bu yo‘lda “bir yoqadan bosh chiqarib” ish olib borishning ijobiy natijasi ishonch bilan ko‘zlanadi [7].

2021-yil 2-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5050 sonli Qarori bilan mamlakatimizda “mahalla huquq-tartibot maskanlari” tashkil etildi [8]. Bu yangi institut mahalla fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, mahalliy darajada huquqbuzarliklarni oldini olish va ijtimoiy tartibni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Mahalla huquq-tartibot maskanlari yoshlar va talaba-yoshlar bilan ishlashda ham samarali vosita sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu maskanlar orqali mahallalardagi yoshlar ijtimoiy xavfli harakatlarga qadam qo‘yishining oldi olinadi, ularning ma‘naviy va huquqiy ongi shakllantiriladi. Shuningdek, maskanlar fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, ota-onalar va pedagoglar bilan birgalikda yoshlar tarbiyasiga oid chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi. PQ-5050-Qaror bilan tashkil etilgan mahalla huquq-tartibot maskanlari talaba-yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy xavfli harakatlarni oldini olishda samarali institutga aylanib, davlat va jamiyatning huquqbuzarliklarga qarshi birlashgan siyosatiga muhim hissa qo‘shiladi. Ular yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularni salbiy ta’sirlardan muhofaza qilish va jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda hal qiluvchi vosita hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida ommaviy axborot vositalarining o‘rni katta. Birinchidan, ular yoshlar va talaba-yoshlar orasida huquqiy ong va madaniyatni oshirishda keng ta’sir doirasiga ega; ikkinchidan, turli yosh va ijtimoiy qatlamlardan iborat auditoriyani bir joyda

jalb qilish imkoniyati mavjud; uchinchidan, yo'naltiruvchi va ko'rsatuvchi funksiyalari orqali davlat va jamiyat o'rtasida ishonchli vositachi bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy sohaga ixtisoslashgan bir qator ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritmoqda. Televideniye misolida, telekanallarda yoshlar huquqiy ongi va ma'naviy-tarbiyaviy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yigirmadan ortiq maxsus ko'rsatuvlar muntazam efirga uzatilayotgani ayniqsa ahamiyatlidir. Shular orasida "Madaniyat va ma'rifat", "Dunyo bo'ylab", "Diyor", "Bolajon", "Oilaviy", "Mahalla" va "Mening yurtim" kabi dasturlar yoshlarning ma'naviy yetukligi va huquqiy ongini yuksaltirish, milliy qadriyatlar va istiqloq g'oyalarini anglash, shuningdek oila, mahalla va ta'lim muassasalari mas'uliyatini targ'ib qilish orqali ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishda faol ishtirok etmoqda [9].

Xorijiy mamlakatlarda profilaktika sohasidagi tajribalarni tahliliga ko'ra, yoshlar jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni rivojlangan davlatlar AQSH, Germaniya va Angliya misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlar va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks profilaktika dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosan ikki turga bo'lingan holda amalga oshiriladi.

Birinchi turdagi dasturlar yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, nazorat choralari kuchaytirish, profilaktik ta'sir ko'rsatish hamda huquqiy javobgarlik mexanizmlarini qo'llashga qaratilgan bo'lib, ular federal, mintaqaviy va mahalliy darajada amalga oshiriladi. Bunday dasturlar muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan profilaktik modellar asosida ishlab chiqilib, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi turdagi profilaktika dasturlari asosan politsiya organlari, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari hamkorligida, shuningdek, mahalliy jamoatchilik ishtirokida amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar aniq muammolar va muayyan huquqbuzarlik turlariga yo'naltirilgan bo'lib, ular doirasida yoshlarni ijtimoiy xavfli muhitdan himoya qilish, ularning huquqiy ongini oshirish hamda salbiy xulq-atvorning oldini olish maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, davlat organlari tomonidan mahalliy tuzilmalarga konsultativ, moliyaviy va tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatiladi.

Jinoyatchilikni oldini olish dasturlarining asosiy ijrochilari mahalliy politsiya organlari (AQSH politsiya xodimlarining taxminan 70 foizi) va mahalliy fuqarolar hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida talaba-yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan jamoatchilik asosida tashkil etilgan profilaktik dasturlar tobora ommalashib bormoqda. Jamoat tashkilotlari ijtimoiy xavfli harakat sodir etgan

yoshlar bilan ishlash, ulardagi muammolarni bartaraf etish, qayta ijtimoiylashtirish hamda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur vositalar va moliyaviy resurslarni jalb qilishga harakat qilmoqda. Biroq bunday faoliyat, xususan, takroriy huquqbuzarliklarning oldini olish murakkab jarayon bo'lib, u sabr-toqat, tizimli yondashuv va yuqori professional tayyorgarlikni talab etadi.

Xorijiy mamlakatlardagi mutaxassislar — shifokorlar, pedagoglar, psixologlar voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum qilish eng oxirgi chora bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishda yoshlarning xulq-atvori, turmush tarzi va tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatish, tarbiyaviy va psixologik chora-tadbirlar orqali ularning ongidagi salbiy qarashlarni bartaraf etish samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

Germaniyada talaba-yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish politsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi asosiy chora-tadbirlar jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan Federal dastur doirasida belgilanadi. Dasturni amalga oshirish jarayonida politsiya organlari bilan bir qatorda ta'lim muassasalari, ijtimoiy xizmatlar hamda jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etadi. Profilaktik tadbirlar federal va mahalliy darajada amalga oshirilib, yoshlarni ijtimoiy xavfli muhitdan himoya qilish va salbiy xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jabrlanuvchilarni o'g'rilik, firibgarlik, talonchilik, bosqinchilik va boshqa jinoyatlardan himoya qilish;
- fuqarolar, ularning mulklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni aholi bilan politsiya hamkorligida amalga oshirish;
- noqonuniy harakatlar sodir etuvchi omillarni zararsizlantirish.

Dasturni amalga oshirish uchun voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish bo'yicha maxsus xizmatlarni tashkil qilinishi kerak bo'ladi. 90-yillar oxirlarida GFR da 140ga yaqin shunday xizmatlar tashkil etildi.

Germaniyada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish va unga qarshi kurashish muammosi bilan shug'ullanuvchi turli idoralar tashkil etilgan.

Shimoliy Reyn-Vestfaliya hududida barcha yirik politsiya idoralarida giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar, jinsiy jinoyatlar, bedarak yo'qolgan shaxslar ishi, shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni tekshirish uchun maxsus komissiya tuziladi. Komissiyalarda odatda voyaga yetmagan aybdor, jabrlanuvchi va guvoh bo'lgan ishlar ko'rib chiqiladi.

Baden-Vyurtenberg xududida jinoyatlar bo'yicha katta bo'linmalar mavjud bo'lib, voyaga yetmagan huquqbuzar bolalar bo'linmalari tashkil etilgan. Boshqa xizmatlarda esa o'smirlarga tegishli jinoyatlar bo'yicha ma'sul xodim tayinlangan. Maxsus idoralar va xodimlarning vazifasi voyaga yetmagan shaxslar nafaqat jinoyatchilar, balki jabrlanuvchi yoki guvohlar sifatida ham ishtirok etgan barcha ishlarni ko'rib chiqishdan iborat.

Quyi Saksoniya xududida politsiya jinoyatchilikni oldini olish ishlarini ko'rib chiqishda ijtimoiy xizmat xodimlari bilan yaqin aloqada ishlaydi. Bunday hamkorlik politsiya va tegishli ijtimoiy xizmat xodimlari o'rtasidagi aniq farqni nazarda tutadi. Jinoyat ishlari bo'yicha politsiya bo'linmasi va ayrim politsiya mahkamalarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari bilan bog'liq masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan yangi lavozim tashkil qilingan.

Buyuk Britaniyada mahalliy politsiya tizimi yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda asosiy mas'ul organ hisoblanadi. Mamlakatda ishlab chiqilgan barcha profilaktika dasturlari, jumladan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan qabul qilingan milliy dasturlar ham asosan mahalliy darajada to'liq amalga oshiriladi.

Yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olish maqsadida Buyuk Britaniyada maktablar va politsiya organlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash hamda yoshlarda qonuniylik va javobgarlik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, har bir maktabda politsiya bilan aloqa qilish uchun mas'ul o'qituvchi tayinlanadi, har bir politsiya bo'limida esa maktablar bilan ishlash uchun javobgar xodim belgilangan. Bu tizim yoshlar bilan profilaktik ishlarni samarali tashkil etishga va ijtimoiy xavfli holatlarni barvaqt oldini olishga imkon beradi.

Xorijiy huquqni muhofaza qilish amaliyotida yoshlarni huquqiy tarbiyalash uchun yangi turdagi politsiyachini tayyorlash kerakligi haqidagi fikrlar shakllandi. U yosh bolalarning do'sti va murabbiysi, jonkuyar himoyachi, sotsiolog va psixolog xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirib, baquvvat va tadbirkor bo'lishi kerak.

Yaponiyada Bosh politsiya Boshqarmasi huzurida voyaga yetmaganlar bo'yicha Markazlar mavjud bo'lib, ularning vakolatlari voyaga yetmaganlar, ularning ota-onalari, yaqinlariga huquqiy yordam berishdan iborat. Markazlarda "favqulodda yordam telefonlari" o'rnatilgan. Favqulodda yordam doimiy ravishda 24 soat davomida telefon orqali amalga oshiriladi. Masalan, Tokio shahrida bunday yordam mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot maktablarga tarqatiladi, telefon orqali yordam so'rovchilarning ko'pchiligi voyaga yetmaganlarning ota-onalari, qarindoshlari,

yaqinlaridan iboratdir. Markazga ko'proq voyaga yetmaganlarning ota-onalaridan oilaviy masalalar, maktab ishlari bilan bog'liq savollar kelib tushadi. Ota-onalardan tibbiy davolanish yoki jinsiy muammolar bilan bog'liq savollar kelib tushsa, Markaz mutaxassislari ushbu ota-onalarni tegishli xizmat xodimlari bilan bog'lanishiga yordam beradi.

Har bir Markaz o'z hududidagi to'rt yoki besh politsiya uchastkasida xizmat qiladi. Markaz mutaxassislarning asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarga huquqiy yordam berish, jinoyatlarni oldini olish hisoblanadi. Shuningdek, Markaz xodimlari qimorxona va boshqa o'yinlarga tez-tez boradigan voyaga yetmaganlarning monitoringni ham olib boradi. Markaz xodimlari navbatchilikni fuqarolik kiyimida amalga oshiradi.

Markaz xodimlari birinchi navbatda erta tongda ko'chada yurgan voyaga yetmaganlarni aniqlab ularning maktabda bo'lishlari kerakligini, darslarga kirmaganlik sabablarini so'raydi. Ular voyaga yetmaganlar bilan suhbatlashadi va bolalarni maktabga sababsiz bormaganliklari aniqlansa, ularni uylariga olib borib, ota-onasiga topshiradi.

Singapurda "voyaga yetmagan politsiyachi" klublari tashkil etilgan. Klublarda tashkilotchilar tomonidan yosh politsiyachilarni sport bilan shug'ullanishiga, xususan, o'zini himoya qilish usullarini o'rganishga taklif qilishadi. Shuningdek, klub tashkilotchilari maktablarda jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan afishalar, plakat va videotasvirlar orqali voyaga yetmaganlar o'rtasida profilaktika ishlarini olib boradi [10].

Chet davlatlar tajribasi talaba-yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishda politsiya organlarining o'rni va roli muhim ekanini ko'rsatadi. Politsiya faqat huquqni muhofaza qilish vazifalari bilan cheklanib qolmasdan, balki tarbiyaviy-profilaktik faoliyatni ham amalga oshiradi. Ularning vazifalari qatoriga yoshlar bilan muloqot qilish, ularni sport va sog'lom turmush tarziga jalb etish, "politsiya klublari" faoliyatiga qiziqtirish, shuningdek, ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lish kabi ishlar kiradi.

Shu bilan birga, politsiya maktablarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarni, jumladan, yoshlar ishtirokidagi diskotekalar va madaniy yig'inlarni nazorat qilish vakolatiga ham ega. "Ochiq eshiklar" kunlari doirasida voyaga yetmaganlar politsiya bo'limlariga taklif qilinib, ular jinoyatlarni oldini olish, huquq-tartibotni ta'minlash va politsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari bilan yaqindan tanishtiriladi.

Ayrim xorijiy davlatlarda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda asosiy tashkillashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi organ sifatida maxsus yoshlar sudlari faoliyat yuritadi. Ularning vakolatlariga faqatgina huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish emas, balki

yoshlarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganini kuzatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish va ota-onalar bilan muntazam muloqot olib borish ham kiradi.

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlar o'rtasida ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishda samarali tashkil etilgan huquqiy tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va profilaktika tizimi muhim ahamiyatga ega. Bunday tizim yoshlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi hamda huquqiy davlat barpo etishning mustahkam asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" qarori, 28.07.2017-yildagi PQ-3160-son. <https://lex.uz/docs/4071203>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, 26.03.2021-yildagi PQ-5040-son. <https://lex.uz/docs/5344692>
3. <https://kun.uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbusni-ilgari-surdi-ular-nima>
4. O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev lavozimga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi, 20.07. 2023-y.
5. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" Qonuni, 14.05.2014-yildagi O'RQ-371-son. <https://lex.uz/docs/2387357>
6. БМТнинг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятларни олдини олиш Конгресси ҳужжатлари. – Москва, 2014.
7. Axmedov M.M. O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslari va ularni rivojlanish istiqbollari // Jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I qism. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – B. 420-423.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида" қарори, 02.04.2021 йилдаги ПҚ-5050-сон. <https://lex.uz/docs/5353841>

9. Nimatov Sh. O‘zbekiston Respublikasi huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ularning bosqichlari. Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. 1-jild, 14-son (YO‘ITJ), 2024. – B. 40-44.

10. Mamasoliyev A., Raxmanov U.X. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish choralari va barvaqt profilaktikasiga oid xorijiy tajriba // Jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I qism. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – B. 358-361.